

IRQIY DISKRIMINATSIYANING LISONIY IFODASI

Noila Mirxamidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktorantinoilamirhamidova@gmail.com<https://orcid.org/0000-0002-9516-5101>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lisoniy diskriminatsiyaning irqiy ko‘rinishlari hamda tilning irqiy stereotip va mafkuralarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Afro-amerikaliklarga nisbatan qo‘llanilgan kamsituvchi lisoniy birliklar, ularning tarixiy taraqqiyoti va semantik o‘zgarishlari yoritiladi. Shuningdek, Afro-amerika ingliz tilining (AAE) shakllanishi, unga nisbatan mavjud stereotiplar va zamonaviy tilshunoslikdagi ilmiy bahosi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot lisoniy diskriminatsiya irqiy va gender tengsizligini mustahkamlovchi omillardan biri ekanligini hamda inklyuziv til madaniyatini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Lisoniy diskriminatsiya, irqiy kamsitish, lisoniy irqchilik, Afro-amerika ingliz tili (AAE), stereotip, mafkura, etnik identifikatsiya, diskriminativ leksika.*

Аннотация: *В данной статье анализируются расовые проявления языковой дискриминации и роль языка в формировании расовых стереотипов и идеологий. Особое внимание уделяется дискриминационным языковым единицам, используемым против афроамериканцев, их историческому развитию и семантическим изменениям. Также рассматривается формирование афроамериканского английского (AAE), существующие стереотипы о нем и его научная оценка в современной лингвистике. Исследование обосновывает тот факт, что языковая дискриминация является одним из факторов, усиливающих расовое и гендерное неравенство, и подчеркивает необходимость развития инклюзивной языковой культуры.*

Ключевые слова: *Языковая дискриминация, расовая дискриминация, языковой расизм, афроамериканский английский (AAE), стереотип, идеология, этническая идентификация, дискриминационная лексика.*

Abstract: *This article analyzes racial manifestations of linguistic discrimination and the role of language in the formation of racial stereotypes and ideologies. Particular attention is paid to discriminatory linguistic units used against African Americans, their historical development, and semantic changes. It also examines the formation of African American English (AAE), existing stereotypes about it, and its scientific assessment in modern linguistics. The study substantiates the fact that linguistic discrimination is one of the factors reinforcing racial and gender inequality and emphasizes the need to develop an inclusive linguistic culture.*

Keywords: *Linguistic discrimination, racial discrimination, linguistic racism, African American English (AAE), stereotype, ideology, ethnic identification, discriminatory lexicon.*

Irqiyl kamsitish yoki irqiyl zo‘ravonlik boshqa shaxsga nisbatan uning irqi yoki millatiga nisbatan nomaqbul xatti-harakatlarni anglatadi. Insonning irqi yoki etnik kelib chiqishi sababli unga nisbatan kuch ishlatish, haqorat qilish, tahdid yoki ta‘qib qilishni anglatadi. Chunonchi, irqchilik hazillari ham irqiyl haqorat va irqiyl ta‘qib hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, “lisoniy irqchilik” atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

“Lisoniy irqchilik shunchaki his-tuyg‘ularni xafa qiladigan so‘z bo‘lib qolmasdan, u dominant guruh tomonidan resurslar va muassasalarga kirish va ularni nazorat qilishni saqlab qolish uchun irqiyl ierarxiyani joriy etish uchun qo‘llaniladigan usuldir”⁸.

Afro-amerikaliklarga nisbatan eng mashhur kamsituvchi lisoniy birliklardan biri bu “nigger” irqiyl haqoratidir. 1990-yillardan boshlab “nigger” so‘zi tog‘ridan-tog‘ri ishlatilmasdan “the N-word” (N-harfi uchun so‘z) evfemizmi bilan almashtirilgan. Shuningdek, bu so‘z afro-amerikaliklarning o‘zlari tomonidan ham “birodarlarcha” “nigga” shaklida ishlatiladi. Mazkur so‘z XVIII asrda lotincha “qora” ma’nosini anglatadigan “niger” so‘zidan kelib chiqqan ispancha “negro” so‘zining moslashuvi sifatida paydo bo‘lgan⁹.

Vaqt o‘tishi bilan bu so‘z kamsituvchi ma’no kasb eta boshladi va XX asrga kelib, haqorat va so‘kish so‘ziga aylandi. 1619-yilda mustamlaka Amerikada Dolf Virjiniya koloniyasiga jo‘natilgan afrikalik qullarni tasvirlash uchun “negars” atamasini ishlatgan. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida “nigger” so‘zi ishchilar sinfini ham ifodalab, ularga ijtimoiy o‘zlik bergan, oq tanlilar esa bu so‘zdan qora tanlilar bilan o‘zlarini masofalashtirish uchun foydalangan. 1859-yilga kelib bu so‘z aniq haqorat ifodalovchi so‘kish so‘ziga aylangan edi, bu o‘rinda “colored” (rangli) yoki “negro” hurmat ifodalovchi muqobillar sifatida qabul qilingan edi¹⁰.

Ma’lumki, “til ideal dunyo manzarasini shakllantirishda, mafkuralarni saqlash va uzatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Binobarin, etnik guruhlar o‘zliklarini til orqali aniqlaydilar. Til mafkuraviy ta’sir va mafkuraviy kurash vositasi sifatida ishlatilgan va ishlatilmoqda. Tilda mujassamlangan qarashlar va ideallar tizimi, til birliklarining hissiy va baholovchi bo‘yoqdorligi jamiyatning axloqiy va ijtimoiy-iqtisodiy holati

⁸ Себрюк А. Н. Лингвистическая дискриминация и лингвистическая апроприация как примеры феномена двойственного сознания в США // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2019. Т. 17, No 1. – С. 134-148.

⁹ Randall K. Nigger: The Strange Career of a Troublesome Word // The Washington Post. January 11, 2001 // <https://www.washingtonpost.com/wp-srv/liveonline/02/authors/kennedy022602.htm>

¹⁰ Багдеева И.Э. Языковая дискриминация как способ воспроизведения расовой идеологии // Международный научный журнал «Вестник науки» № 5 (62) Т.1. 2023. – С. 327.

bilan bevosita bog'liq bo'ladi"¹¹. Bu o'rinda S. G. Ter-Minasova quyidagilarni ta'kidlaydi: "Til va mafkura bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi: mafkura tilga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, o'z navbatida, til ham mafkuraga ta'sir ko'rsatadi"¹². Mafkuraning tilga ta'sirini Amerikaning irqiy mafkurasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Afro-amerikaliklar so'zlashadigan, ularning etnik kelib chiqishi va o'zligini aniqlash vositasi hisoblangan ingliz tilining noyob varianti Amerika jamiyatida tortishuvlarga sabab bo'ladi. Oq tanli aholi orasida afro-amerikaliklarga nisbatan stereotiplar va nafratga asoslangan munosabatlar ularning tiliga ham taalluqlidir. Oq tanlilarning fikricha, afro-amerikaliklar tabiatan dangasa, intizomsiz va ahmoq bo'lganliklari uchun ular soddalashtirilgan va buzilgan ingliz tilida gaplashadilar.

Afro-amerika ingliz tili dastlab XVI-XIX asrlar oralig'ida turli Afrika mamlakatlaridan Yangi Dunyoga olib kelingan afro-amerikalik qullar o'rtasida muloqot shakli sifatida rivojlangan. Moddiy va ma'naviy merosidan mahrum bo'lgan qullar asl afrikalik kimligini saqlab qolish va xo'jayinlarining cheksiz shafqatsizligidan himoya qilish uchun xo'jayinlari tomonidan tushunilmaydigan va ularning qarshilik ko'rsatish ramziga aylanadigan noyob tilni rivojlantirishga majbur bo'lishgan.

Afro-amerika ingliz tili o'z tarixi davomida turlicha nomlangan: "Negro Nostandard English, Black English, Black English Vernacular va Ebonics". Bu nomlar irqiy munozaralardagi o'zgarishlarga javoban o'zgargan. Hozirgi kunda Amerika tilshunosligida Afro-amerika ingliz tili (AAE) atamasi keng qo'llaniladi¹³.

Adabiy doiralarda AAE ko'pincha "yomon ingliz tili" deb ataladi¹⁴. Uning salbiy tamg'alangan maqomi ("stigmatized status") 1970-yillarda amerikalik tilshunos U. Labov boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi tomonidan ilk bor shubha ostiga olingan. Ular afro-amerika ingliz tili o'ziga xos qoidalar, grammatika, fonetika va lug'atga ega mustaqil lingvistik tizim ekanligini isbotlab berishadi. Natijada, afro-amerikaliklar tili ilgari ishonilganidek, til sohiblarining kognitiv jihatdan rivojlanmaganliklarini muhokama qilish uchun hech qanday asos yaratmaydi¹⁵.

"Ratchet – bu hip-hop jargon atamasi bo'lib, asl ma'nosi "qo'pol" ayolni anglatadi. Uning ham ijobiy, ham salbiy ma'nolari bor. Amerika jargonlarida ommalashib ketishidan oldin, bu so'z, asosan, qora tanlilar tomonidan "hayajonlanish, bazm qilish, qattiq harakat qilish" («getting excited, partying, going hard»)

¹¹ Себрюк А.Н. Лингвистическая дискриминация и лингвистическая апроприация как примеры феномена двойственного сознания в США // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2019. Том 17, № 1. – С. 136.

¹² Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 121.

¹³ Себрюк А.Н. Лингвистическая дискриминация и лингвистическая апроприация как примеры феномена двойственного сознания в США // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2019. Том 17, № 1. – С. 139.

¹⁴ Alim H. S., Baugh J. Talkin' black talk: Language, Education, and Social Change (Multicultural Education Series). – New York, Teachers College Press, 2007. – P. 33.

¹⁵ Labov W. Language in the Inner City: Studies in the Black English Vernacular. – Philadelphia, University of Pennsylvania Press, 1972. – P. 202.

ma'nolarida ishlatilgan. Biroq bir nechta mashhur qo'shiqlar chiqarilgandan so'ng, "ratchet" so'zi kengroq ma'noda qo'llanila boshladi. Chunonchi, Amerika inglizchasida (ayniqsa, qo'pol ayollarga, qo'pol afro-amerikalik ayollarga nisbatan) kamsituvchi, seksistik ma'no kasb etdi. Bu afro-amerikalik ayollarning qo'pol, o'qimagan, jamoat joylarida haddan tashqari baland ovozda gapiradigan va qo'pol jinsiy aloqada bo'lgan stereotipini mustahkamlaydi. Mazkur so'zning o'rinliliği atrofida davom etayotgan bahs-munozaralar amerikalik fuqarolik huquqlari faoli va yozuvchisini 2012-yilda "Bury the Ratchet" ommaviy kampaniyasini boshlashga undadi. Bu kampaniya davomida bir nechta afro-amerikalik jamoat rahbarlari Amerika ommaviy axborot vositalarida qora tanli ayollarning ko'plab salbiy stereotipik media tasvirlarini tahlil qilishdi"¹⁶.

Demak, "ratchet" atamasini lisoniy diskriminatsiyaning ham irqiy, ham gender kamsitish toifalariga kiritish mumkin.

Xullas, odamlarni irqi, tana rangi yoki etnik kelib chiqish belgisi bo'yicha kamsitish millatlar o'rtasida do'stona va ahil munosabatlarga to'siq bo'lishini hamda xalqlar o'rtasida tinchlik va xavfsizlik, shuningdek ayni bir davlat ichida shaxslarning uyg'un tinch-totuv yashashi buzilishiga olib kelishi mumkin. Irqiy to'siqlar mavjudligi har qanday insoniy jamiyat ideallariga zid hisoblanadi. Shuning uchun kishilarni diskriminatsiya qiluvchi har qanday lisoniy kamsituvchi ifodalarni qo'llashdan qochinish maqsadga muvofiqdir.

¹⁶ Black Youth Project. Angela Davis Launches 'Bury The Ratchet' Campaign to Fight Negative Images of Black Women. URL: <http://blackyouthproject.com>.